

Mohlaroyim

Yozuvchi va publitsist Mirza Karim ko'hna adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biri bo'l mish Mohlaroyim (Nodira) haqida tavalludining 200 yilligi arafasida kitob yozib tugatdi. Quyida shu kitobdan olingen, shoira hayotining baCHzi qirralari yoritilgan lavhalar bilan tanishasiz.

### Olam Etagi

Saratonning bir tutam tunida ko'zing ilinmasidanoq tong yorishadi. Mohlaroyim xobgohining yon tomonidagi derazadan oppoq nur o'ynoqlayotganini ko'rди-yu, o'rnidan turishga oshiqdi. Ammo, vujudida anchadan buyon bahr to'lqiniday to'lib-toshgan istaklari ushalganidanmi yoinki, olampanohining suhbatliyru qaynoq quchoqlaridan uzil-gisi kelmasdi. U yana vujudida horg'inlik sezdi, soniyan oppoq parday uchishga ham shay edi. Mohlaroyim o'rnidan turmak niyatida nozik qo'llarini olmoqchi edi, yostiqdoshining uzun va tim qora soqoli yuziga tegib, badanida chumoli yugurgilagandek bo'ldi. Qizargan badanini berkitdi, sekin o'girilib munsak va tunbonini kiydi, zarkovushini oyog'iga ilib, obrez tomon yurdi. Bugun uning uchun olam yanada ko'hli va munavvar, boqiy va muqaddas edi. Ana shu boqiylik Mohlaroyimga dalda berar, yor va diyor haqidagi nekbin o'ylariga jon bag'ishlardi. Tunov kungi majlislarning birida g'ijjakchi Otaxon Ho'qandiy "Kel dahrni imtihon etib ket" matlai bilan boshlanadigan g'azalni shunday kuyga solib xonish qildiki, o'z-o'zingdan sel bo'lmay ilojing yo'q edi. Bir tomonda olampanoh ko'zlarini yungancha boshini tebratar, go'yo aql-hushini hofizning xonishiyu shoiraning so'zlarini olib qo'ygandek edi.

Mohlaroyim Jahon otin bilan chekkaroqda, sultanat arboblariga yaqin maxsus xonada o'tirarkan, ko'zlaridagi yosh tomchilar" dur singari to'kilay-to'kilay deganday omonat turardi. G'azalning qilichday keskirligini yana b,ir bor his etgan, mana shu his uni yana ijod etishga undardi. Qaddi biroz tik, yoshi ulug', lokin husnda har qanday nozanin bilan bas boylasha oladigan Jahon otin ham chuqur o'ylarning girdobiga botgancha xayol surar, chamasi ana shu qa-rashlarining o'zi bilan Mohlaroyimga tan bermoqda edi. Yo'q, Mohlaroyim o'zini yuqori tutmadni, salgina jilmaydi, atrofimi majlis ahlining sharaflovchi ovozlari tutdi. Mohlaroyim buni g'ijjakchi Otaxon Ho'qandiy sha'ni deya xayol etdi, ammo xonanda so'z sarvariga ta'zim etganida ikki yuzi loladek qizardi-yu, bosh egib qo'ya qoldi. Uning bu takallufi o'zbek ayolining adabi, kamolotidan darak berar, qolaversa, shunday dabdabali davralarda o'zini ham mayin, ham muloyim, ham erkin tutar, o'z navbatida bu ayrim ko'ngli yarim odamlarning dilini o'rtab yuborardi. Ilgari bunday anjumanlarga zaifalar taklif etilmavdi. Endi esa zamona o'zgarib, go'yo dunyo g'ildiragi ters aylanayotganday, mana shunday qutlug' davralarda ojizalar ishtirok etishadi, tap tortmay suhabatga qo'shilishadi, yo atayin, kazokazolarning so'zini bo'lishadi. Bu ham mayli, ochiq yuz bilan qalam qoshini, qora ko'zini, qomatini ko'zguga solganday mushoaralarda ishtirok etishadi. Ayrim ko'ngli egri odamlar qiyofasini o'zgartirib o'zini mammun namoyish etmoqchi bo'ladilar-u, lekin olampanohning ko'nglini ovlash maqsadida qo'l qovushtirib "Siz, haqsiz" deganday bosh egadilar.

Mohlaroyim majlisu mushoaralarni mushtoqlik va intizorlik bilan kutar, olampanohning saltanat tashvishlaridan xoli, amiru umarolari orasida erkin bo'lishini ayni mana shu majlis ahli uchun xayolini jamlab, dildida ro'y bergan o'zgarishlar, sog'inishlar xususida qog'oz qoralashini va "Amiri" taxallusi bilan oshiqona g'azallar bitishini yaxshi ko'radi. Alalxusus, shoiraning fikri joyizicha, g'azal bitilgan xonadonga xizr nigoh tashlab o'tarmish. Mohlaroyim o'z xonadonini ham, sultanatini ham hamisha ana shu nigoh ostida bo'lishini qumsaydi, har kuni sahar-mardondan tilovat qiladi. U el-ulusning ezgu niyatini bajo keltirish orzusida. Bu orzuning qanon qoqishi bir tomondan sohibqironning ma'qullashiga bog'liq, hozircha Mohlaroyim madad olayotir. Xuddi mana shu madad, el nazarida, Mohlaroyim hurmatini baland etayotir. Buning ustiga u Jahon otinsiz o'zini yolg'iz his etadi. Negaki, u yaqin o'n yillik qadrdon, sirdosh, murabbiy. Buning ustiga Jahon otin kelinchakning qirqi chiqmayaq xonadonga tashrif buyurgan. Mohlaroyimning esida, kelinlikning dastlabki kunlari Marg'ilon negadir uning uchun begonadek tuyulaverdi, Andijonni, to'ptosh o'ynagan bolalik damlarini, lola Tergan Xokan adirlarini o'y-layverdi, chehrasiga sog'inch hislari tepchib chiqdi, buni panjshanba kunimi, tungi tahorat olish oldidan Umarbek payqab qoldi, erkaladi, quchdi, ko'nglida uyg'ongan hadikmi, qo'rquinchni, hammasini birma-bir so'zlab berishni iltifot ila so'radi. To'g'risi, Mohlaroyim kuyovto'raning quchog'ida cho'g' bo'ldi, nima deyishini bilolmadi va bazo'r Hafiza otinni tilga oldi. Umarbek ojizasining qalbida g'azal dardi yonib, tobora alanga olayotganligini tushunib yetdi, mammun bo'lganidan yorining peshonasidagi patila sochlarini qayrib o'pdi, so'ng mehr bilan bag'riga bosdi. Bekning otash bag'ridan Mohlaroyim chiqqisi kelmasdi. Umarbekning xayolida nimadir uyg'ondi sheky'pli, sekin o'rnidan turib xobgohdan tashqariga yo'naldi. Xonadonning o'ng to-monidagi eshik uning kitobxrnnasi edi. Bu yerda garchi kam bo'lsa-da, Navoiy, Fuzuliy, Yassaviy asarlarini o'qyr, o'zi tazkiralarga ishtiyoqmand, nomi xayoldan ko'tarilsa-da, g'azali dilning chuqur joyidan o'ren oladigan shoirlarning bayozlarini ko'p mu-tolaa qilardi. Hozir u bu yerga bejiz chiqmagandi. To'y-tomosha bo'libdiki, Umarbek beklik ishlari bilan band.

Mohlaroyim esa kelinlik chillasidan sarmast. Umarbek qoralagan qog'ozlarni birma-bir izlab topdi va ko'z yogurtirdi, ayrimlariga ko'z tashlab kulimsiradi. Shu mahal Umarbekni qizg'anganday ostonada Mohlaroyim ko'rindi. Yana ixlos va havas bilan bag'riga bosdi, soniyan qog'ozni qo'liga olib, g'azalni to'lib-toshib o'qishga tushdi. Mohlaroyim bu gal bag'riga olgandan ham boshqacha ta'sir og'ushida to'lg'onardi. Umarbek qilich bilan mashg'ul bo'lgan bekgina emas, uning qo'lida qalam ham yayrab yozarkan, Hammasidan "Amiri" deb g'azal maqtasini tugatishlari jozibali edi. Shu-shu Umarbek vaqtib bo'lganda Mohlaroyim bilan saboq qilishni yo'lga qo'ydi, lekin bu mashg'ulot uzoq cho'zilmadi. Umarbek beklik yumushlari bilan bo'lib, marg'ilonlik shoira Jahon otin - Uvaysiyga odam yubordi. Jahon otin beklik dargo-higa qeldi-yu, Mohlaroyim bilan biri ko'z, biri qosh bo'lib qoldi.

Mohlaroyim zarrin sochiqlarga artinib, patila sochlarini to'g'riladi. Pardoxzona-da mashshota mushklardan: bo'yinlariga, qulqlarining ortlariga surtdi, sohibqironi tuxov kuni maqtagan o'rik guli yanglig' ko'ylagini havasmand kiydi va yana xobgoh sari yurdi. Ko'zining nuri, dilining malhami, umrining yo'ldoshi, olampanoh Umarxon bu gal Mohlaroyimning o'rnida g'oyat xushsuvat uxlardi. Shunday bo'lsa-da, Mohlaroyim shohi ko'rpachani sekin surib, sohibqironning yelkasini o'rabi qo'ydi-da, bamdad namozini o'qishga oshiqdi. U yana orqasiga o'girilib mehmonxona yonidagi eshikni ochdi-da, ilgichdag'i barqut joynamozni olib, yuzini qibлага o'girdi. Mohlaroyim oyoq sharpasini eshitdi-yu, e'tibor bermadi. "Assalomu alaykum va rahmatullo" deb ham o'ngga, ham so'lga burilgan paytda Olima otinga ko'zi tushdi, u go'yo bemavrid kirganidan xijolatda edi. Mohlaroyim bamdad namozidan so'ng tilovat qilib, joynamozini yig'ishtirib, o'rnidan turganda qushday yengil edi. Olima otin peshvoz chiqdi, ko'lini ko'ksiga qo'yib, ta'zim bajo keltirdi-da: "Jahon otin tashrif buyurmishlar", dedi Mohlaroyimga qarata. Mohlaroyim mana shunday dili ravshan damlarda Jahon otinni ko'rsa yayrab ketar, shu kuni saharmardondan shomgacha ayrilgisi kelmas, o'qigan bayoziyu qoralagan g'azaligacha birma-bir bayon etar, gohida Jahon otinni yoniga olib turli qurilishlarning borishini o'z ko'zlar bilan ko'rmaq niyatida shaharning turli dahalariga boshlardi...

Mohlaroyim Jahon otining yo'qlaganini eshitibeq, xonadan chiqdi va odimini tezlashtirdi. U yo'l-yo'lakay ro'molini to'g'rilaqan

bo'ldi. Mehmonxona poygagida nazokat ila o'ltingan Jahon otinga ko'zi tushdi-yu, yashnab ketdi.

- Xush kelibsiz Jahon bibi, qadamlariga hasanot, - Mohlaroyimning qarashlariyu so'zlaridan kelinlik davridagi iltijo, mayinlik va tavoze namoyon edi.

- Sizning husnu jamolingiz shirin kalomingizsiz tura olarmidim, oyim! - Jahon otin iltifot ila javob qaytardi.

- Lokin oina yuziga chang o'rashganday emasmi? Yo men adashdimmi?

Jahon otin Mohlaroyymning sezgirlingiga tong qoldi. Mohlaroyim intizorlik bilan yana so'radi.

- Bu ko'zlarni miskin etgan kim bo'ldi? Menga yorilmasangiz kimga aytasiz dar-dingizni, bibi!

Jahon otin saharmardondan bostirib kirganiga o'zini ming qatla koyidi, shunday bo'lsa-da, Mohlaroyimning savoliga sekin javob berdi.

- Kecha hujramga kech borib edim. Ne ko'z bilan ko'rayin, darvoza ochiq. Qulf buzilgan. Kimga nima kerak bo'ldiykin, deb xonaga otildim. Qarang, oyim, dilim hamrohi - tanburimni ham ko'p ko'ribdilar. Axir, toliblarimga ilmi musiqiydan saboq berardim. Tuni bilan faryod chekdim. Men yig'lamay kim yig'lasin.

Jahon otining o'tanib yonishlari Mohlaroyimning bag'rini tilib o'tdi, haligina shodmon bo'lgan ko'ngli ustiga tuz sepilganday bo'ldi, Mohlaroyimga ham qiyin, hozir ko'nglini ko'tarayin desa, o'zining qo'l qisqa, Jahon otindek mumtoz shoira, murabbiya va buning ustiga dono ayolga kim ozor berdi? Mohlaroyim chuqur o'ylar, o'ylagan sari turli saboq kelaverardi. Oxiri fikrini jamlab, sekingina javob berdi.

- Meni avf etgaysiz, bibi! Xonadoningizga kirgan nobakorlar topilur! O'zingizni o'ksitmang. Bu dunyoda yaxshidan ko'ra, gumroqlik urug'ini sochayotgan kimsalar ustundir. Lokin undaylarning kosasi oqarmas. Siz bilan bizning xojamiz bor ekan, alalxusus, aytganimiz ayon bo'lqusidir.

- Siz meni avf eting, oyim!

- Hechqisi yo'q, bibi! Sizni ko'rib shodlandim. Nonushta qilaylik, madrasadan xabar olmoqchiydim. Birgalashib boramiz.

Olima otin shu orada dasturxon yozdi, noz-ne'matlarni birma-bir qo'yib chiqdi. Mohlaroyim issiq patirnonni ushatarkan, chehrasida tabassum o'ynaganini sezdi. Hozirgina o'zini ezayotgan g'am yukidan forig' bo'ldi. So'ng kecha dilining bir chetiga tugib qo'yan fikrini ayta boshladi.

- Sarimozor dahasidagi Hoji otining mehmoni bo'lgandim. Tolibalarni ko'rib hayron qoldim. Qizlar emas, naq bulbulning o'zi deysiz. Kelini ham she'rga ko'p xushta'b ekan. Dilshod Barno...

- Dilshod Barno, - qiziqib so'radi Mohlaroyim. So'ng eslay olmadi shekilli, sekin boshini qimirlatdi.

- Sizga ixlosi baland erur. Bir g'azalini o'qib berdi. O'ratepadan kelib qolibdi. Bandi qilingan ekan.

- Yo'g'-ey... - hayratlandi Mohlaroyim.

- O'z tilidan eshitdim. Aytmoqchimanki, o'sha muhojirlik damlarini' qog'ozga tushira boshlabdi.

- Dilshod Barno dedingizmi? Haramga chorlasakmi?

- Bilmadim.

- Nega?

- Olampanoh huzurlarida she'r o'qib, qahrlariga uchragan emishlar.

- Gap bu yoqda deng. Saltanat doirasida bo'lmagan odam o'zini begona hisoblayveradi. Bo'lmasa, Gulxaniy, Maxmurdek allomalar o'zlarini chetga olisharmidi. Yo hajv kuchi o'tmaslashib qolishiga aqlлari yetsa kerak-da. Dilshodingiz ham o'sha toifadan... Sezdim, sezdim, o'sha toifadan...

- Lokin g'azallari bag'oyat go'zal. Shirali. Mana, nima deb yozibdi shoira: "O'rdadan chiqqach, ikki yil keyin fahm etdimki, u yerda Farg'ona mulkining malikasi, she'riyat va tarona shavq-zavqining sohibi, ya'ni davr Nodirasi va zamonasini ko'zga ko'ringan shoirasi hayot ekanlar, ko'rishga ko'p harakat qildim, ammo tuyassar bo'lmadim:

Tong mahal chikdi haramdin turfa moh,

She'riyat tojini kiygan podshoh.

TaChbzim etdiq ehtiromi nazmig'a,

Loyiq aylab anga hurmat izzu joh,

- Kim? - dedim, - Nodira, - dedilar ani

Yonida Vasiy turur olampanoh.

Har biri ming shoira o'nidadir,

Ikkovi birla to'lur, har borgoh.

Jahon otin ko'zini qog'ozdan oldi-da, sukul saqladi.

- O'qing, o'qing, davom eting, bibi, - dedi Mohlaroyim xayol daryosida cho'mgan o'ylarini jamlab. - Qanday g'azal-a, o'qing, bibi. Jahon otin davom etdi:

- Bir anor vasfi uchun ming ofarin,

Deb malika bir menga qildi nigoh.

Shu bilan yetti boshim to osmon,

Qolabimga to'ldi lik mehri giyoh.

Davrasida o'lтурib Dilshod edim,

Ayrilik etdi mani holim taboh.

Mohlaroyim bir soniya tong qotib qoldi. Bu so'zlarda quruq maqtov, avrashu aldash iuk, aksincha xush tavoze, samimiyatu e'tirof etishdek ma'nili ma'nolar yashiringan edi. Ama shu sirli, sehrli so'zlar nainki Mohlaroyimni, balki Jahon otinni ham band etgan, u ham o'zi o'qigan g'azaldan lol, bemajol edi. Ho'qand saltanatida o'zini shoir deb sanagan kazo-kazolar safining karvonboshilaridan biri atalishiga arzirli Dilshod Barnoga tahsin o'qimasdan iloji yo'q edi. Mohlaroyim buni tushunib yetdi, u ham Dilshod Barno bilan uchrashishni diliqa tugdi...

Jahon otin bir burda patir nonni qo'liga olib, zar yogurtirilgan piyoladagi choydan ho'plarkan, xayolida hamon o'zini koyir, arzimagan tanbur uchun Mohlaroyimga yumush orttirdimmikin, deganday besaranjom ko'rindi. Lokin, xayolinining yana bir chetida Mohlaroyimni ko'klarga ko'targan, Ho'qand viloyati malikasi deya chin ko'ngil va vijdon amri ila kuylayotgan Dilshod Barnodek yana bir g'azalnavis topilganidan, vaqtisi-soati bilan ko'rishish niyatida bo'lganidan Jahon otinining boshi osmonda edi. Nega boshi osmonga yetmasin. Mohlaroyimning quvonchi - uning quvonchi. Gar afsus va nadomat chekkuday bo'lsa Jahon otinga o'n chandon og'ir. Avvaldan turmush tashvishlari uni kunma-kun ezib turibdi. Umrining guli va hamrohi Hoxixonning foni dunyodan boqiy dunyoga safar etganiga yaqin sakkiz yil bo'lyapti. U, qolaversa, umr yo'ldoshiga sadoqatini saqladi, uni buzgisi ham yo'q.

Axir to'ng'ichi Muhammadxon, Quyoshxon bo'y cho'zib kelyapti. Jahon otin umrining, orzu-umidining davomini ana shu farzandlari-da ko'rish niyatida. Mana shu niyatgina uning qaddini egmay turibdi. Buning ustiga Muhammadxon Majnun taxallusi ilo bitgan g'azallarini o'qiganda entikib qo'yishlari bir o'zigagina ayon. Qizi g'azallarni mushtoq va ishtiyoq bilan o'qiydi, hatto xattotlik bilan shug'ullanadi. Demak, Jahon otinining ertasi yorqin, nurafshon. Yana kim bilsin deysiz?..

Bir gala o'y Jahon otinni o'z girdobiga tortganini Mohlaroyim his etardi. Mohlaroyim ana shu his - sezgining quli edi, unga har qancha va hamisha qullik zanjirida bo'lismishga shay edi. Negaki, olam besabot va bebaq! Har bir odam, alalxusus ijodkor sezgi va sevgi bilangina tirik. Qo'yib bersa odamning o'zi eng kichik zarra, lokin ana shu zarrada aql va imon ustivor. Bu ustivorlik besh kunlik dunyoni shodu xurramlik bilan o'tkazishga, ezgu ishlar qilishga undaydi, qolaversa erk tig'ining nozik pallala-rida qaynashdan ham toymaydi...

Mohlaroyim ana shunday ezgu yumush bilan band. Yon-atrofida, davrada va boringki, Ho'qand sultanatida xayrli ishlarga qo'l urgan kishilarni ardoqlayapti, qo'lidan kelgan yaxshilik urug'ini sepishga intilyapti. Nojoizliklarni ko'rganda, eshitgan damlarda Mohlaroyim kun bo'y tund, besaranjom yuradi, ba'zan yuragiga qil sig'maydi. Shunda Mohlaroyim qayerdadir bir gala g'alamin qilichini qayrayotganini, sultanatga ko'z olaytirayotganini, ko'nglining mulki va olampanoh Umarxonning tahdid qilayotganini anglaydi. Mohlaroyim shu zahoti harir gullik ko'ylagining yoqasini xiyol ochib, ko'ksiga tuflab qo'yadi: "O'zidan kelib, o'ziga ketsin", degan salovatni uch-to'rt bor qaytaradi, shunday so'nggina ko'ngli bir oz taskin topadi.

Shu soniya ostonada Olima otin ko'rinish berdi-yu, so'z qotib Jahon otin bilan Mohlaroyimning shirin o'ylarini to'zg'itishga xalaqit etadiganday birpas sukul saqladi-da, jur'atsizlik bilan:

- Mulozimlar aytdilarki, olampanoh yo'qlamishlar!

Mohlaroyim etaklarini yig'ishtirib, sekin o'rnidan turdi-da, birrov xabar olishga izn so'ragansimon Jahon otinga o'girildi. Soniyan ostonadan o'tib odimini tezlashtirdi. Mohlaroyim xonai xosga kirganida mulozimlar olampanohni kiyintirib bo'lishgan, yangi bir buyruq, imo-ishorani ehtirom bilan kutib turishardi. Mulozimlar Mohlaroyimni ko'riboq, ta'zim baho etishdi, so'ng o'zlarini chetga olmak niyatida orqasi bilan yurib tashqariga chiqdilar. Olampanoh qop-qora, qalim soqollarini silagancha tiyrak ko'zlarini Mohlaroyimga tikdi, bu iboli, iltijoli qarashida faqat ikkovi uchun sir yashirinligi o'z-o'zidan ayon edi. Mohlaroyim beixtiyor olampa-nohning ro'parasida to'xtadi. Olampanoh ayni nozli chehrani sog'inganday bag'rige olib uzoq bosdi.

- Qo'yingiz, nomahramlar nima deyishadi! Olampanohimiz aynib qolibdi degan o'y-xayollarga bormaydimi? Keyin, keyin...

- Ko'rishsin, mayli butun Ho'qand ahli ko'rishsin. Rozimen.

- Voy anavilarni...

Mohlaroyim noz bilan issiq bag'ridan chiqdi va chekkaroqqa o'tdi. Hozir ana shu issiq bag'rida uzoq erakalangisi, qop-qora soqolining tikanlariga oppoq yuzlarini o'ynatgisi kelardi, lekin, yoyilib qolgan oftob nurlari xon va malikaning xatti-harakatidan ogo bo'ladiqanday edi. Mohlaroyim olampanohning qoni mana shunday gupurib turgan mahalda dilini yoradi. Olampanoh issiq bag'irning nash'asidanmi, ishvali ko'zlarning nigohidanmi karaxt bo'liday, la'l qadalgan sallali boshini sekin-sekin qimirlatib, ado etishga rizolik byoradi. Mohlaroyim hozir ana shu daqiqaning etagini qo'lidan chiqarmaslik maqsadida edi.

- Begim, Jahon bibim tashrif buyurgan edilar, anchayin xomushlar...

- Sabab? - olampanoh qoshini chimirib, Mohlaroyimning so'zini bo'ldi.

- Hujrasidan tanburi o'g'irlanganman...

- Kim...

- Shuni bilolmay garangmiz, begim!

- Malikamizning murabbiyalari hujrasiga kiradigan badbaxtning chotini yirib tashlangay!

Mohlaroyim olampanoh og'ziga olgan xunuk so'zdan yerga qaradi-yu, lokin alam va dard bilan aytilgan, erta-indin u nokasning topilishi muqarrar ekani ta'kidlanganidan quvondi. Hozir chiqibeq, Jahon otinni quvontiradi, quvontiradigina emas, erta-indin tanburini qaytarib berdiradi-yu, yana avvalgiday o'zini lol etgan "Munojot"mi, "Tanovor"mi, istagan kuyini chaldirib, rohatlanadi, lazzatlanadi. Mohlaroyim shu bilangina chegaralansa bo'lardi, ittifoqo ingirchoqlik Xosiyat kampirning arzi hamon yechilmayotganini esladi. Ana shu onaning ko'zyoshlari haqqi, farzandining yo'liga nigoron orzu-umidlari haqqi hozir aytishi kerak, ha, hozir!

- Begim... - Mohlaroyim olampanoh oldida va umrining yo'ldoshi oldida tas-rayib turgisi kelmadimi boshini xiyol egdi. Lekin Mohlaroyim bir muddat sukul saqlab turdi.

- So'zlangiz... - olampanoh betoqatlik bilan so'radi.

- Avval sizdan o'tinib so'ragan edim, ingirchoqlik Xosiyat kampirning qizi hususida...

- Ingirchoqlik...

- Ha, yakkayu yolg'iz qizalog'ini o'g'irlab ketishganmanish. Hatto haramga olib ketilgan degan mish-mish yuribdi. O'sha kuygan onaizor haqqi qizining topilishini o'zingiz qo'llamasangiz...

- Ingirchoqdan dedingizmi?

- Ha, ha, - Mohlaroyim hozirning o'zida topilib qoladiganday sevinardi. Olampanoh Umarxon sevgilisi Mohlaroyimning iltijo ilo aytgan iltimoslarini yerda qo'ymas, ado etishga va'da bersa yerning ostidan bo'lsa ham qidirtirar va topilgach, sevgilisining chehrasida jilva qilgan kuldirgichlaridan o'pib qo'yuvchi edi.

To'g'ri, Mohlaroyim oldida g'oyat yuvosh va mayin ko'ringan Umarxon sultanatda, saroyda, jang maydoniyu va hatto sayr-sayohatda butunlay o'zga holatda bo'lar, buni o'zicha tabiiy hisoblar va shunday bo'lishini istardi. Negaki, u birgina Mohlaroyimning oshig'igma emas, balki butun Ho'qand sultanatining otasi! Uning dasti uzun - xohlasa qirqadm, yuhlasa uzaytiradi va ayni paytda xumga avaylab chog'ir quyligandek, olampa-nohming miyasida ham jaholat urug'i ko'payaveradi. O'zining fahmicha, sultanat mayinlik, ibolikni emas, balki qilichdek keskirlik va qattiqqo'llilikni yoqtiradi. Hozir ingirchoqlik qiz

haqida eshitdi-yu, chuqur xayolga toldi. O'ylab-o'ylab eslolmadi, keyin birdan nimadir yodiga tushdi. Eh-ha, o'sha emasmikin? Quvasoy atrofida edi shekilli. Yo'q, o'shanda chodirning burchagiga ikki arvoq kapalak qo'ngandiyu butun orzu-umidlari puchga chiqqandi. Aniq kuni esida yo'q, vaziri kalonning: "Haligi parini singlingiz cho'rilikka sinash umididadirlar", deganini eshitdi-yu, ustma-ust chog'ir ichib, dunyo ishlaridan ko'nglini uzgan olampanoh kim haqida, nima deyayotganligini ham unutib "Buyuringiz!" degandi.

Podshohi a'zamning o'ylab-o'ylamay bergen buyrug'i o'sha zahoti ado etilishi muqarrar. Bu ming yillab o'zgarmay kelayotgan udum.

Hozir ro'para turgan sultanat malikasi yoxud beozor ma'shuqasi so'roviga nima deb javob bersin?! To'g'risi, Mohlaroyim oldida yolg'on gapirishga botinolmas, bunga tili ham kelmas, ayni mahalda o'rgaimagan ham edi. Shu xislat ustun keldimi va niyoyat dildan yorilishni farz deb bildimi, ishqilib, olampanoh Umarxon dedi:

- Shahrixonga chopar yuboringiz. Hoji to'ra xonadonida bo'lsa ajab ermas.

Bu gaplarni eshitib Mohlaroyimning hayrati oshdi, to'g'risi qulog'igacha qizarib ketdi. Go'yo yostiqdoshini harom-harish joyda qo'lga tushirgan-u, hozir ustiga ustak dakki berayotganga o'xshardi.

- Shahrixon... Qiziq... Ingrichoqliq qiz nima qiladi u makonda. Olampanoh qovog'ini uydi.

- Sultanat atrofida necha ming yugurdak borligidan bexabarmusiz. Illo biladi, ne maqsadda o'g'irlashgani-yu, uni Shahrixon sari eltishganini... Nihoyat singlim cho'rilikka so'rattirgan ekan, buyurib edim.

- Qulluq... - Mohlaroyimning chin dildan aytayotgan tashakkuri allaqanday ta'naga o'xshardi.

...Olampanoh kaftini bir-biriga urdi, ostonada shay turgan ikki mulozim qo'l qovushtirib ko'rinish berdi. So'ng olampanohning imosi bilan huzuriga oshiqdi.

- Sizlarga ikki kunlik muhlat berurmen. Malikangizning izmida bo'lasizlar. - So'ng olampanoh Mohlaroyimga o'girildi. - Bugun yo'l tadorigini ko'rishsinmi?

- Ixtiyorongiz...

Olampanoh "gap tamom" deganday shaxdam odimlar bilan chiqib ketdi. Mulozimlar Mohlaroyim qarshisida nima qilarini bilmay jovidragancha turishardi. Mohlaroyim avval Ingrichoqqqa chopar yuborib, Xosiyat kampirni tinchitish zaruriyatini o'yaldi-da: "Sizlar boraverengyzlar, keragida yo'qlaturmen", deb ruxsat berdi. Mulozimlar ozod etilgan qushday yengil chiqishar ekan, Mohlaroyim tanasida og'riq turganday tuyuldi. Bu qachonlardan beri aytolmagan va aytishga istihola etgan muhabbat og'rig'i edi! Bu og'riq qachonlardan beri aks sado berar edi-yu, hozirgidek yuragiga xanjar yanglig' qadalmagandi. Umrining yo'ldoshi sayru sayohat va shikor bahonasida diliga xush keladigan yumushlarni uyalmay-netmay so'zlab o'tiribdi-ya. Ayol qalbini nimta-nimta qilmaydimi bu!

Mohlaroyim yana Jannat kampirga bag'rini ochibdi-ya. Axir o'sha jodugarning erkasi olampanohning toza to'shagida yumalashga rozi bo'lgandir-da! Yo'q, bunday yengil tabiat qizlarni parchalab tashlashga qodir Mohlaroyim. Keyin yana bir zum o'nga toldi. "Nimalar dedim men! Axir onaizorning yig'lashi dunyoning ag'dar-to'ntariga teng emasmi?! Ko'rib-bilib va hatto suhbat qurmay odamning ichidagisini bilib bo'larkanmi? Ehtimol ingrichoqliq qiz butunlay begonadir".

Mohlaroyim ba'zi o'ylaridan qizg'anib, ba'zilaridan esa bezib o'zini avaylagan bo'lidi-da, hech narsa ro'y bermaganday Jahon otin o'tirgan xonaga kirdi. So'ng hayallab qolganidan duv qizarib uzr so'radi. Jahon otin bundan xijolat tortdi va "Ayta oldingizmi, oyim" degandek ko'zlarini pirpiratdi.

- Bezovla bo'lmganiz, bibi, hammasi o'z o'rnida bo'lur...

- Hudoga ming qafla shukur-ey...

- Ammo topilganda qarzdorligingizni unutmassiz deb o'layman.

- Aytganingiz bo'lur, oyim.

- Fahmlagan odamdan ming o'rgilsang arziydi. Sizning "Tanovor"ingizni, "Munojotiingizni shunday sog'indim...

Mohlaroyimning ham dili yorishdi. O'g'irlangan tanbur topilgunga qadar qanoat qila olmadi, Olima otinni tanbur olib chiqishga buyurdi. Jahon otinning kayfiyati yaxshi edimi, yoinki, Mohlaroyim davrasida shunday bo'lmadimi, haytovur o'zi ham erib ketdi. Olima otin olib chiqqan tanburning u yoq-bu yog'ini ko'rda-da, sozlashga tushdi. So'ng o'ng'ay o'tirdi-da, torlarni cherta boshladи. Hozirgina sovuq, nimjon simlar go'yo tilgan kirib o'tmishning adamli damlarini shundoq ko'z o'ngingda aks ettirar, ana shu kunlar, onlar davridan omon kelayotgan qo'shiq, g'azal va so'zni ulug'lardi. Bu hikoyalari ma'nili, maqsadli va shuning barobarida bir xazina edi. Ana shu xazina hozir birgina Jahon otinning qo'lida jaranglar, go'yo oltin sandiq ochilgan-u, undan noyob buyumlarni birma-bir ulashayotganday tuyulardi. Jahon otin ana shu xazinani ulashayotganidan mammun va masrur edi.

Yangrayotgan sado ayni damda Mohlaroyimni goh o'tmish salaflari huzuriga yetaklar, ularning g'am to'la ko'zlarida dardli munojotni uqayotganday bo'lardi. Shu bilan birga o'zining baxtiyor onlarini ham eslardi. To'g'risi, baxtli onlari bisyor, alalkusus, gul tikansiz bo'limganidek, ba'zan-tba'zan mushkul xayolot - dard, musibat ham o'z nomasini taqdim etardi. El-ulus dardi uchun qalqon bo'lishga intilgan Mohlaroyimning ko'ksiga turli-tuman nayzalar tez-tez sanchilgudek, qo'yib bersa qalbini tilka-pora qilgudek edi. Vaholanki, sultanat olampanohi ana shu nayzalarning uchini qayririb turar, zero Mohlaroyim buni yaxshi bilar va qadriga yetardi.

Sado tingach, Mohlaroyimning ham, Jahon otinning ham yelkasidan tegirmon toshi sidirilib tushgandayg bo'ldi. Og'ir tin olish bilan o'sha dard birdan yengil tortdi, shu tobning o'zida ikkovi ham parday parvoz qilishga shay turardi.

Mohlaroyim Jahon otinning bezovtalanayotganini sezib, Olima otinni chorladi-da, dasturxonni yig'ishtirishga buyurdi. Uch-to'rt xodima dasturxonagi noz-ne'matlarni olaboshladilar. So'ng Jahon otin uzoq duo o'qidi, ular birin-ketin o'rinlaridan turdilar.

- Men boray, oyim! - Jahon otin tovushida o'kinch ohangi kuchliroq tuyuldi.

- Voy, vo-oy, bibim, hali kelishgan edik-ku! Yana yolg'iz tashlab ketmoqchimisiz?

- Olima otin-chi?

- Hozir Ingrichoqqqa yo'l oladir. Bir onaxonning arzi yuzasidan. - Mohlaroyim atayin Xosiyat kampiru uning parivash qizi xususida to'xtalmadi. - Shunga o'zingiz yonimda bo'lasiz.

- Jonim bilan.

Mohlaroyim Olima otinni huzuriga chorlab qulog'iga nimalarnidir quydi-da, zudlik bilan xabar yetkazishni so'radi. Qaddi biroz tik, bo'yniga oppoq ro'mol tashlagan Olima otin bekasingin so'zini tez-tez ilg'ab "aytganingiz bo'ladur" deganday bosh silkidi. So'ng oshig'ich ortga qayrildi. Mohlaroyim esa Jahon otin bilan Ho'qand ko'chalari tomon yo'l oldi.

Ho'qandliklar bu ikki ayolni yaxshi bilar, maboda yo'lida uchratib qolsa, bir zum to'xtab, hurmatini joyiga qo'yishardi. Ana

shunday paytlarda ayrim chorikor, kosib, duradgor, taqachi, umuman ahli fuqaro bir nima demoqchidek jovdiragancha bosh egib turishardi. Bunday onlarda Mohlaroyim darrov to'xtab, ular arzini tinglar va shu zahoti xulosa chiqarardi. Mohlaroyim hozir Jahon detin bilan yo'd tanlab, terak va tollar soyasi bo'ylab sekin borarkan, odamlarning salomiga alik olardi. Zero, kattayu kichik g'oyat aziz sanar, ana shu nomning o'zidan beadad faxrlanar edi. Axir uning g'azallari hofizlar ijrosida pastqam-pastqam hujralargacha yetib borgan, ayni paytda Ho'qandning mashhur qog'ozuga qayta-qayta zeb berilib, ko'chirilib, qo'shni saltanat va yurt tomon uchirma qilinayotgandi. Va o'z o'rniда Nodira el-ulusning malikasi, onasi hamda qizi edi. Bu bilan Nodira faxrlanardi, faxrlanishga haq-huquqi ham bor edi.

Mohlaroyim Jahon otin bilan qurilayotgan yangi madrasa tomon burilishdi. Ostona hatlashlari hamono bugun bu yerga shaxxulislom Ma'sumxon to'ra ham qadam ranjida qilganligini eshitib, behad sevinishdi. Chunki shaxxulislom Ma'sumxon to'ra Ho'qandning yorug' yulduzlaridan biri. Bu zot olampanoh Amir Umarxon kengashlarida ko'p bo'lар, ollohning inoyati ila yaxshiliklar qilishni buyurar, o'zga yurt, el-ulus ustiga hujum qilishni, bejiz qon to'kilishini qoralardi. Shayxulislomning o'gitlari g'oyat bama'ni va mag'izli edi, afsuski, yuksak martabada o'tirib, oyoq ostimi ko'rishga iy-mangan, choh qazish ilinjida payt poylagan va buning uddasidan chiqishga qiynalayotgan fe'li egrilar olampanohni boshqa yo'l sari burib yuborishga oshiqardilar, shaxxul-islolming otalik o'gitlari, yo'l-yo'rqliqlarini eshitmaslikka undardilar yoki undan boshqacha bir ma'nio yo'yishga urinardilar. "Haq" so'zini tildan tushirmagan shaxxulislom Ma'sumxon to'ra egri yo'l asqotmasligini, baribir egriligidicha qolishini aytardi-ki, bu pisandanay ayrim fe'li egrilarning dami ichiga tushib ketardi.

Shayxulislom Ma'sumxon to'ra Mohlaroyimni anchadan beri ko'rman, uning shirin kalomini tinglashga musharraf bo'lishni orzulab yurgan edi. Buning ustiga Jahon otin, ya'ni Uvaysiy ham birga edi, ularni yonma-yon ko'rganda, darrov opa-singillari ko'z oldiga kelaverardi. Mohlaroyim Ma'sumxon to'rani ko'riboq shaxxulislom tomon uch-to'rt odim yurdi va ibo bilan egilib salomlashdi. Jahon otin ham ayni harakatni takrorladi.

- Barakallo, malika kelin! Barakallo, Jahon otin, - dedi shaxxulislom qiroat bilan. - Umrlaringiz uzun, yo'llaringiz ravshan bo'lg'ay. Shayxulislom Ma'sumxon to'ra Mohlaroyimni kelin qilib tushirib kelgan kundan "qizim" deb, keyin Umarxon Ho'qand saltanatini egallagach, "malika kelin" deyishga o'tgandi.

Mohlaroyim shaxxulislom Ma'sumxon to'ra yonida kalovlanib qolganday, so'zlarini yo'qotib cho'mdi, shoshib Jahon otinga qaradi, o'z navbatida Jahon otin ham "Siz so'zlang, oyim", degandek imo qildi.

- Madrasa qurilishidan xabar olay degandik... - dedi Mohlaroyim.

- Bu yumushning savobi bisyor, malika kelin! B'T"dedi.

So'ng shaxxulislom Ma'sumxon to'ra balx tuti ostidagi so'ri tomon yurdi. Mohlaroyim bilan Jahon otin shaxxulislom izidan ergashishdi.

- Men sizga aytasam, malika kelin, madrasai Mohlaroyim zamonamizning zap koshonalaridan biri bo'lib qolg'ay...

- Madrasai Mohlaroyim...

- Ha, shundoq, hayratlanmang, - dedi shaxxulislom Ma'sumxon to'ra. Madrasalar nomi ko'pincha uni qudirgan kishi nomi sharifi bilan ataladi. Ana axsilik Xonxo'ja Yusuf Alixo'jamming muborak nomlari Madrasai Xonxo'jaga muhrlangan. Yomon bo'libdimi? Madresai Mohlaroyim. Ulug' nom. Sizning muborak nomingizni asrlar osha bayok etgusidir. Bu dunyo besh kunlik dunyo deymiz-u, yeb-ichish, o'qish, o'rganishdan tashqari qilinadigan ishlar ham bisyor. Peshonamizga olampanoh Amir Umarxonday saxovatpesha sohibqiron yozilgan ekan, alqissa ishlarimiz cho'ng bo'lgusidir. Shu orzu-umid yo'lida tasbeh o'girib, olamning barkamolligiga oyatlar o'qib, kunni kech qilmoqdamen. Bu olamning etagi keng deymiz-u, kengga keng, torga tor, malika kelin. Degrezlik mahallasida men ham madrasa qudiriyapman: "Madrasai Hakimxon to'ra".

- Hakimxon to'ra nomigami?

- Shunday. Shu o'g'limdan umidim katta. Aqli, sinchkov, mehribon. Tariximiz o'chmasin deganiga shukronalar aytamen. Bo'ladigan bola boshidan, malika kelin.

Shayxulislom Ma'sumxon to'ra qo'llarini ochib uzun duo o'qidi va kaftlarini yuziga surtib soqolini silab qo'ydi. Hozir shaxxulislom Mas'umxon to'raning bu duosi xojai Xizrning "Tila tilagingni" deb, duo qilishlariga o'xshab ketdi. Mohlaroyim ko'z ostidan Jahon otinga qaradi. Jahon otin esa bor diqqat-e'tiborini shaxxulislom Ma'sumxon to'raka qaratgan edi. Bu nuroni cholni saltanat davralarida ko'rgan bo'lsa ham fe'li bunchalik keng, aqli raso, niyati ulug' va fmdoyilagini tushunib yetmagandi. Shayxulislom Ma'sumxon to'ra o'rniдан qo'zg'aldi-da, degryozlik mahallasi tOmon yo'l oldi. Mohlaroyim shaxxulislomning ortidan kuzatib qolarkan, balx tutga suyangancha yana bir bor ulug'vor madrasaga ko'z tikdi. Saratonning haroratiga o'ralib mayin esayotgan sabo allaqayerdan sas olib kelar va u ham go'yo "Madrasai Mohlaroyim", "Madrasai Mohlaroyim", deb takrorlardi...

Oyning O'n Beshi Yorug'...

1240 hijriy yil zulqa'da oyining oxirlari.

Ho'qand saltanati malykasining amri bo'yicha O'rda bugun kun bo'yi band bo'lgusi, bu xabar jazoyiriy qilich taqqan maxsus muhofiz yigitlarga uqdirilgan, mushoirayu dil bazmiga tashrif buyurgan sanamlargina haram darvozasiga qo'yilardi. Olima otin saharmardondan kanizlarni ishga solgan, ayniqsa qo'rg'onning tashqi aylanasisidagi gulzor havas qilgulik edi. Gulzor o'rtasidagi olti qirrali marmar hovuz yoniga so'rilar qo'yilgan, majnuntol attrflariga selgytyb suv sepilgan, kanizlarning biri qo'yib, biri dasturxon tuzatishga oshiqar, taomni xushbo'y va shirin tayyorlash borasida bahslashardi. Mohlaroyimning iltifoti yana o'sha - mushoira tashkil etysh, shu bahonada dil dardlarini to'kish va bu shevaga mehr-muhabbatni xiyila oshirish edi. Uning muborak so'zlar siqdillik ila ado etilar, bu davra qayig'iga tushgan oysanamlarning dili yorug'lik nurini to'laligicha sipqorar, mungli qo'shiq ortidan galma-gal sho'x laparlar ham yangrar, inchunun Maston oyim laparchi bunyng uddasidan qoyilmaqom chiqa olardi. Uning Qumri deb atalmish yo'rg'alama o'yinchisi g'oyat kirishimli, ko'zga yaqin, qaragan saring qaraging kelaveradi.

Olima otinining kaniz va qullarni shoshirganicha bor, kyocha oqshom Nodira unyng qo'log'iga maxfiy gap quygan, bugun u ishlarni yurishtirib ana shu yumushni ado etishi zarur edi. Bu yumush aslida savobli edi: Dilshod Barno nomini bir necha eslab yurdi-yu, ayni mana shunday damlarda uni davraga tortgisi, o'z tilidan g'azalarini eshitgisi kelardi. Buni Olima otinga uqtirdi, o'z navbatida Olima otin mammun bo'lib, ta'zim bajo etdi.

- Borimizni birga baham ko'ramiz-da, nima dedingiz?

- Dunyo turguncha turing, oyim! Nodira og'ir uh tortdi.

- Qaniyi siz aytgancha bo'lsa... Bu urushu qirg'in el-ulus qaddini bukib yuboryapti, qonini zulukday so'ryapti. Dilshod Barnoni majlisimizga chorlashdan maqsad ham shu. Uning yosh boshiga ming tashvish ortgan ham biz, tug'ilgan maskanidan ayirganimiz

yetmasmidi... Bunday savdoni boshdan kechirayotganlar oz deysizmi? Qaniydi, o'shanday sanamlarning boshini silay olsak.

- Qulluq, oyim!
- Siz yo'qlab borsangiz boshi osmonga yetar. Keyin, nazm daftari...
- Tushundim, oyim!

Olima otin Nodirai davronning kechagi yumushini o'yladiyu quyoshga qiyo boqdi. Kun bugun ham issiq bo'lishi muqarrar edi. Bu sanamlarning jon-dili, soyai salqinda, majnuntollarning uzun va qayrilma novdalari ostida sho'xchan kulishlari, xonish qilib davrada gir-gir aylanishlari uchun qulay edi. Olima otin sayr gulshanini yana bir bor ko'zdan kechirib, kanizlar orasidan sug'urildi va yumushni bajarish ishtiyoyqida shitob yo'l oldi.

Shu soniya Nodira o'z xonasida oq harir ro'molini holsizgina bog'lab, bugungi davraga yangi yozib tugatgan g'azalini o'qish umidida o'zicha takrorlardi.

Kel, senga, ey shahi jahon, mamlakati jahon fido,  
Diydalarimga ko'y qadam, har kadamingga jon fido.  
La'li labing, firoqida xuni jigar g'izo menga,  
Sarv qading havosida jon etaram ravon fido.  
Ayshu nashoti ofiyat dardi g'ammingni sadaqasi,  
Bir nafas ishtiyooqning ishrati jovidon fido...

Qalamni bir yon qo'yib, qaytadan o'qishga tushdi. O'qilgan sayin ko'ngli xush bo'layotganday tuyulardi, inchunun g'azalning o'zi ham jon fido etayotgan sohibasi yanglig' behad ishvali edi. Bu ishvaning ne-ne dilga qanot bo'lgusy ayon edi. Nodira kuyuq qoshini chimirgancha bexos o'nidan turdi va xonai xosga to'shalgan arabiy gilam uzra odim tashladи. Beixtiyor g'uncha lablari pichirlab, g'azal matlaini tilga ko'chirdi.

Xonai xos eshigi yonida sokin qadam tovushi sindi, Nodyra nogoh o'sha tOmon ko'z tashladи, o'n sakkiz yoshli kaniz Go'zal bosh egib turardi.

- Yumushingiz bormidi, so'zlangiz?

Go'zal qimtina-qimtina so'z boshladи.

- E'tibor enaga kirishga izn so'raydir.

Nodiraning ko'z oldida do'mboqqina o'g'li Sulton Mahmudxon ko'rindi, ko'rindiyu shu zahoti o'rtanib sog'inganini his etdi.

Yuragining bir parchasi - o'tgan kundan buyon ko'rinish bermagan edi. Hozir o'sha sog'ingan damlarning hissasini chiqaradi, bag'riga bossin, bir to'yib bossin!

- Aytингиз, marhamat!

Go'zal yana ta'zim bajo aylab sekin orqasi bilan yurdi. Ostonada E'tibor enaga ko'rindi. Qo'lidagi do'mboqqina bolani yerga qo'ydi-da, Nodira tomonni ko'rsatib:

- Amirzoda Sulton Mahmudxon, validai mukarramangiz ila salomlasting-chi? Nima deb o'rgatuvidim.

- Assalomu alaykum, buvi...

Farzandning biyron tilidan Nodira o'zida yo'q xursand edi.

- Vaalaykum assalom, tillaringizdan onangiz o'rgilsin!

Amirzoda vrlidasi bag'rida erib ketganday edi. Bu manzara E'tibor enagaga xush yoqdi shekilli, chehrasida to'kin nur o'ynadi. Bola talpina-talpina Nodira bag'ridan chiqar ekan, biroz o'sgan kokillarini ko'rsatdi.

- Sochim o'sib qoldi, qarangiz, mana, mana...

Nodira beixtiyor kenja farzandini yana bag'riga olib, sochlarini uzoq siladi.

- Qo'rdim, o'g'lim, juda yarashiqlik...

- Enagam ertak aytib beradilar.

Nodira yer ostidan E'tibor enagaga qaradi va "tashakkur" deganday bosh silkidi, o'z navbatida enaga g'amzali boqdi. E'tibor enaga burma yoqali oq batis kuylagining etagini xiyol ko'tardi va o'nidan turib ketishga izn so'radi, alhol Sulton Mahmudxon validai mukarramasiga bag'ridan hamon ayirligisi kelmasdi. Mana shu ayriliq azrbini dil qatiga joylashtirish enaga uchun ham og'ir, ham mashaqqatli edi. Shu sababli siniq ovoz bilan:

- Amirzoda Sulton Mahmudxon! - deya chorladi. - Qani, yuring, sabog'imiz... Sulton Mahmudxon bir enagaga, bir validai mukarramasiga termuldi. Tili biyron, ayni shakarning o'ziga o'xshash bola uchun har ikkovi ham aziz va mehribon edi. Ona mehr-muhabbatyga to'yg'an bolaning imoni mustahkam bo'ladi. Sulton Mahmudxon validai mukarramasiga bag'riga otildi. Nodira o'g'lining keng peshonalaridan, munchoqdek qop-qora, uzun sochlaridan, olma yanglig' yuzlaridan uzoq o'pdi, dast ko'tarib quchog'iga oldi, soniyan yana tushirdi.

- Amirzodam! dedi E'tibor enaga. - Kun yoyilib qolyapti. Sabog'imiz...

- Hozir, hozir...

Nodira Sulton Mahmudxonning kattalardek biyron tillaridan o'zida yo'q to'lqinlandi. Amirzoda sekin qayrilib xayrlashgandek boshini silkidi. Nodira ko'ngli haligina limmo-lim turgan g'azal tuyg'ulariyu yuragining bir bo'lagi - farzandining sevinchlari bilan to'lib-toshgandi...

Mohlaroyim Andijon zaminida chopqillab yurgan qizaloq edi, vaqtı yetib Marg'ilon hokimiga uzzatildi, kuyovning baxti chopib Xo'qand taxtiga chiqdi. Mohlaroyim beka, shoiragina emas, malika. Uning katta o'g'li Muhammad Alixon bo'y cho'zib qolgan.

Otalıq yetakchiligidä otda chopish, qılıch urushtirish, jangda o'zini himoya qılısh sirlarını o'rganadi. Musiqadan, tarix va riyoziyotdan saboq oladi. Bil'aks, hisobni negadir so'ramaydi, aljabrdan so'z ochilsa, o'zini chetga olish payida bo'ladi. Shahzoda Muhammad Alixon birodari Hakimxon to'radan ayrimas, ko'pincha saboqni birga olishardi. G'azal, she'riyat borasidagi saboqlardan Nodiraning ko'ngli to'lmas, g'azaliyotning nozik sirlarını, tabarruk bobokalonlarning dilo'rtar hikoyatlarini o'zi hikoya qılıshni validalik burchi deb hisoblardi. Bil'aks Nodira mana shu saboq bahona turli qo'lyozma, bayoz va tarixlarni titkilar, pichoqqa ilingulik topilsa, daftarga qayd etar va uning eng mukammallarini saboq paytida tilga olardi. Ayniqsa, Hakimxon to'raning tarixga dildan berilganligi Nodiraning xayolida shahzodamga ham yuqsa qaniydi, degan o'y chimdib o'tardi.

Ostonada paydo bo'lgan kaniz Go'zal ogiz juftlashga ulgurmayoq shahzoda Muhammad Alixon bilan Hakimxon to'ra bo'y

ko'rsatishdi.

- Assalomu alaykum! - yoqasiga zar qo'shib tikilgan kuylak, tilla suvi yogurtirilgan qalpoq qo'ndirgan shahzoda Muhammad Alixon salom berdi va shoshib Hakimxon to'rani ko'rsatdi. - Biz o'tgan kunlarning tarixi haqida tortishib qoldik. Men ayturmenki, Xo'qand saltanatining xoni - padari buzrukvorimizning el-ulus yo'lida cheka-yotgan zahmatlari boqiyidir. Shunday emasmi, oyijon!

Nodira shahzoda Muhammad Alixon salomiga alik oldi va uning qizara-bo'zara tyoz-tez so'zlayotganidan, bil'aks qozilik qilishga undayotganidan "Ne tarix ekan?" deganday hayratlandi. Bu orada Hakimxon to'ra odob va qiroat bilan salomlashdi, malika huzurida bir soniya bosh egib turdi.

- Aybga buyurmasangiz, bir boshdan so'zlab bersam...

Nodira aql, idrok ila so'zlayotgan Hakimxon to'ra tomon yuz burdi.

- Marhamat...

- Gapning indallosi shuki, bugungi kunimiz erta uchun tarix. Bil'aks, bu bizdan yoxud har birimizdan damlarning qadriga yetishga undaydi. Beixtiyor shunday deb o'laydi odam.

- Shunday, shunday... - ta'kidladi Nodira. - Xo'sh, nechuk kerak bo'ldi bu gaalar!

- Sizning saboqlaringiz meni qadimiy qo'lyozmalarni o'qishga undaganligidan baxtliman. Alhol... O'tmishda ham, binobarin bugungi kunimizda ham xatoliklar ro'y berayotganligini yashirmasligimiz darkor. Shahzoda ikkimiz tortishgan muammoni tilga olishimiz gunohi azimdir. Alhol, haq yo'lini qidirar ekanmiz, aytmasdan o'zga ilojimiz yo'q.

- Bag'oyat haqlisiz...

- Bundan besh yil muqaddam biz O'rategaga yurish qilgan ekanmyz. Haq taolo yo'lida dilimiz yorug' va ravshan bo'lishi yuzasidan aytish joyizki,adolatsiz bo'lgan bu yurish...

- Ko'ryapsizmi, oyijon, padari buzrukvorimning yurishlariniadolatsizga yo'yyapti, Hakimxon. Tortishib qolganimning boisi shul. Nodiraning qoshlari chimirildi. Qarshisida turgan bolakaylarning fikrlari dadil va mustaqil edi. Avvalan, Hakimxon to'raning teran bilimi, mulohazasi va so'zlarni joy-joyiga qo'ya olishi, nodir tarixiy voqealarini tilga ko'chirganda vujudan berilishi oqil va bilimdon alloma kamol topayotganidan darak berardi.

Taassufki, shaharda Muhammad Alixon bu shoxda biroz yengil, hatto jirraki, inchunun, uni manfur voqealar, hodisalar, taqdirlar qiziqtirmsidi. Darvoqe, amiralmuslymin Amir Umarxonning peshonasi yarqirab, o'ning qadami yetgan joylar beshak bo'yin egib xiroj to'lash bilan band, mamlakat sarhadlari kengaymoqda, yangi-yangi madrasa-karvonsaroy, xonaqohlar qad ko'tarmoqda. Xonlikning xazinasi ham kam emas, hozir to'rt tomonga qo'l uzatsa yetgudek. Bil'aks, yaxshilikning soyasida yomonlik ham tomir otishi muqarrar. Shahzoda Muhammad Alixon tilga olgan g'oziy yurishlar va sarmast g'alabalar ostida achchiq qismat berkinganini kim bilmaydi.

Hakimxon to'ra Nodiraning chuqur va g'alayonli o'ylar girdobida g'arq bo'lganligini sezar, chamasi, dardu alamlarni yolg'iz malika va shoiringina tushuna olishiga ishonardi. Hakimxon to'ra vujudidagi o'ylar malika qalbini qanchalik sirqiratsa, birodari Muhammad Alixonni esa shunchalik olovlanadiradi. Hozirning o'zida Muhammad Alixon betoqat, saboq olish, yoinki, pand-nasihat eshitishni sira yoqtirmsadi...

Nodira xayol daryosining sohiliga chiqqziday bir soniya sukut saqladi va nihoyat:

- Hakimxon to'raning fikrida adolat bor, - dedi.

Bu Muhammad Alixon qalbiga mrmoqaldiroyday gumbirlab urildi, shahzodaning yuzlari qip-qizarib ketdi.

- Nimalar deyapsiz, buvijon...

Nodira shahzoda sochini siladi.

- Adolat hamisha haq chiqqusidir...

- Siz... Siz padari buzrukvorimga qarshimisiz, - Nega bunday deb o'laydirlsiz, jonim...

Shahzoda Muhammad Alixon dylidagini yashirib turolmadni.

- Padari buzrukvorimning yurishlari xususida...

Nodira bu gal masala nima xususda borayotganini farzandi to'g'ri anglay olmayotganidan o'ksindy, Bu o'ksikdan dilida og'riq paydo bo'ldi.

- Nahotki, masalaga yuzaki baho bersak. Hakimxon to'ra, tarix - hayot ko'zgusi ekanligini to'g'ri fahmlagan. Siz bilan har qancha tarixiy votsealarni yashirish xususida qizishmaylik, baribir u o'z aksyni topgusidir. Bu masalada Hakimxon to'raning haqligi shundaki, siz bilan bizga zafar hadya etgan ana shu jangu jadal necha oilaning yostig'ini quritgan. Bu haqda loaqla o'ylab ko'rdingizmi, jonim. Sizlar kamolot palla-siga qadam qo'ydilaringiz. Har bir masalaga haq torozusi nuqtai nazaridan qarashga o'rganishlarining lozim.

Hakimxon to'ra haq ekanligyni dildan His etdi-yu, tiliga chiqarmadi, chehrasida ham o'zgarish yuz bermadi. Nodira buning boisini tushunib yetdi. Hozir, Hakimxon to'ra bu haqda tilga kirma, o'lganning ustiga tepgan bo'lady.

Nodira bu ikki o'smirliga tarixyy voqealardyon ko'p saboq bergan, ammo bugungiday chigal masalaga duch kelmagan edi.

Harqalay, el-ulus uchun yonayotganligi va o'z olami uzra teran tahlil qilayotganligidan Nodira mammun bo'ldi. Shahzoda Muhammad Alixon validai mukarramasidan biroz noligan holda xushkayfiyat ila xonai xosdan uzoqlashdi, o'z navbatida Hakimxon to'ra boshegib xayrlashdi.

Malikai mukarrama bugun avvalan fidoyi farzandlarining kamolini xayolan tasavvur etdi, ertangi kundan umidvorligini sezdi, qolaversa, kezi kelganda Muhammad Alixonga tarixiy voqealarini to'g'ri anglay bilish, ulardan to'g'ri xulosalar chiqara olish xususiyatini singdirish zarurligini tushunib yetdi. Axir, kechagi kunning fazilatini to'g'ri anglay olmaslyk bugungi kunning qadriga yetmaslikka va ertani butunlay unutishga yetaklamaydimi? Bunday yovuzlikka yo'l qo'yish gunoh! Uning nafosati va latif so'zlarigina yigit qalbini erkalashi va uig'rtishi muqarrar. Nodira xayol daryosiga cho'mgancha daftarin qo'liga oldi va yana dona-dona o'qidi:

P'P°PeC,Pë C...PëC PsPj, C P°PSP°Pj, PrPëPN PrP°P»P°C P PjPiP° PeChPN  T P°PrP°Pj,  
TIPsPeP  C P°TiP PSPiPiP° P P N P»P C P Pj C P C PjP  PiC TiP C B C,,P C PsPS C,,P PrPs...

Ostonada paydo bo'lgan Olima otin Nodira xayollarini to'zg'itgisi kelmay o'zini chetga oldi, uning soyasi xonai xosda yalt etib

7 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

paydo bo'lganidan Nodira bosh ko'tardi. Olima otin ta'zim bajo etdi.

- Marhamat...

Olima otin ostonadan avaylab o'tarkan, qiroat bilan salomlashdi. Nodira alik olib, o'tirishga taklif etdi, bil'aks Olima otinning, hali yumushi ko'pligidan uzr so'ragan bo'ldi.

- Dilshod Barno O'ratepaga yo'l olg'an zqamlar, qaynonasi afsus bilan ta'kiddilar. Harqalay murabbiysi o'rnini bosa oladigan shogirdlari anchagina...

- Taklif etildimi...

- Albatta, oyim.

O'rdaning bahavo joylaridan biri - olti qirrali marmar hovuz bo'ylarida qo'yilgan so'rilar misoli gulshan chamanining o'zi. Bir yonda rayhon, jambil, o'sma, xina, ikkinchi yonda ra'nogul, atirgul, sapsargul bo'y taratayotganday edi. Kanizlar izzat-ikrom ila oyimlarni qarshi olardi. Ert kelgan sanamlar quyiroqdan, naq hovuzning bo'yiga, shundoqqina majnuntol soyasiga o'rnatalgan so'rida o'tirishardi. Sanamlar duv etib o'rinalardan turishdi: Jahon bibi bilan Mahzuna bibi yonma-yon kelishmoqda edi.

Xo'qandning e'tiborli shoiralardan hisoblanmish Jahon otin qaddi biroz tik, Mahzuna bibiga nisbatan ulug'g qo'rinar, shu sababli unga ko'proq hurmat va izzat ko'rsatilmoqda edi. Mahzuna bibi o'rtalari bo'yli, handalak yuzli, sochlari mayda qilib o'rilgan, bil'aks yuzini shodonlikdan ko'ra allaqanday mahzunlik egallab qo'yganday edi.

\* \* \*

...Nodira Andijonda bo'lgan kunning ertasiga validasi muhtaramadan uzr so'rab, murabbiysi Hafiza otinni yo'qlash tadorigini ko'rdi. Oyshaxonim qizining bu odatini yaxshi bilar, har safar Hafiza otinning huzuriga o'zi otlanardi. Bu gal ham Nodira shunday qildi. Nodira o'ziga ilk bor harf tanitgan, endigina uyg'onib kelayotgan g'uncha yanglig' ko'ngliga she'riyat urug'ini solgan va uni ne azob, mashaqqat ila ko'kartirgan Hafiza otin oldida o'zini hamisha qarzdor hisoblardi.

Qaytar chog'i validasi rizolik so'raganda ko'ngli birdan bo'shashib ketdi. Tez-tez xabar olib turgin, deb tayinladi. Bunga javoban Mohlaroyim bunday gaplarni tilingizga olmang, o'tinaman, yolvoraman, dedi. "Aytganing kelsin qizim", dedi buvijonisi. Ammo Ho'qand sari qaytayotganida ko'zlar g'iltilab, yoshga to'ldi. Bebaho, bor bomligidan ajralayotganini ko'z oldiga keltirib, unsiz yig'ladi. Shu-shu validasi nomiga noma yuborib turar va chopar qaytib kelguncha, ko'zi to'rt bo'lib kutardi.

Hozir u Ho'qand saltanatining ulug' va ko'rkan maskani bo'l mish o'rjadagi sanamlar, evoh, qumrilaru bulbullar davrasida bu gulshandan sarmast bo'lib, xush kayfiyatda hordiq chiqararkan Dilshod Barnoning e'tiborli shogirdi Mohinbonu tilidan yangrayotgan alam-sitamlari dilini o'rтardi, nega qalbi tirlamasin, axir Andijoni olis, validayu g.adari buzrukvor olis. Ilgari u otanasi haqida bugunchalik o'rtanmas va yonmas edi. Beixtiyor yon-veriga qaradi, Jahon otin ham, Mahzuna bibi ham boshini quyi solishgancha xayol daryosiga g'arq bo'l shigan. G'azal hammyoning yuragini sel qilgan edi.

Mohinbonu g'azal o'qib bo'lgach, bir lahma jum qoldi. Unda-bunda og'ir tin olishlar eshitildi. Jahon otin sekin so'z qotdi.

- Dilshod Barnoga bizning nomimizdan tashakkur va tahsinlar yetkazgaysiz. Yarador dilni yaralab yana o'zi davolay olish qudratiga ega g'azal bitibdilar. Bu har kimning qo'lidan kelmas.

Mohinbonu qulluq qildi-da, so'ng:

- Kaminai g'aribingiz birodaru yor xususidagi hikoyatdan bejiz boshlaganim yo'q. Olampanoh, qolaversa, malikai muhtaramamizning behad iltifoti ila boshimiz g'am neligini ko'rmasa deyman.

- To'g'ri gapni aytursiz!

- Alqissa, yana bir g'ayritabiyy taomilimiz ham bor. Muhtarama shoira murabbiylarimiz ko'ngillariga olmasalar chinini aytishim kerak.

- Marhamat!

- So'zlangiz...

- Biz o'tgan kunlarimizga tosh otib keldik. Alqissa, bu taomil keyin ham davom etgusidir! Shunday ekan, tarixni qadrlash zaruriyatdir. Toki, nabiralarimiz bizning peshonamizga tavqi la'nat bitmasinlar.

Mohinbonuning gaplaridan Mahzuna chehrasiga qizillik yugurdi. ,.

- Gapingiz bag'oyat qadrli, singlim!

Nodira Mahzuna fikrini qo'llab-quvvatladi. Shu soniya Mohinbonu yonida To'tiqiz paydo bo'lib, dedi:

- Bugungi ustozlar davrasi meni g'oyat mammun etdi. Avvalo, g'azal o'qib vaqtini olishim...

- O'qing, o'qing! B'T"atrofdan turli ovozlar yog'ildi, To'tiqiz uyalib, gapning indallosini aytди.

- Ustozlar g'azaliyoti oldida meniki hali ancha g'o'r. Topgan bir bog' gul, topmagan bir bog' piyoz, deganlar axir. Kuni kecha Nodirabeginning g'azallaridan devon tartib qilib edim. Yosh xattotning tuhfasi deb bilursiz, ustoz!

To'tiqiz mayin va ohista qadam tashlab so'ri tomon yurdi va Nodira yonida ta'zim bajo qildi-da, qo'lidagi devonni uzatdi. Nodira behad shod, buning ustiga kutilmagan sovg'a ham edi. Nodira To'tiqizning peshonasidan o'pib, "tashakkur" deganday ishora bildirdi. Mana shu hadya yuraklar chigilini yozyb yubordi. Maston oyim laparchi ana shu chigilni batamom yoyish maqsadida childirmani zarb bilan ura boshladi. Halidan beri dam olib o'tirgan raqqosalar muqom bilan birma-bir davraga otildilar.

Dasturxondan xabar olib turgan Olima otin Nodiraning qo'lidan devonni olarkan, ko'z qarashlaridan nima deyayotganligyni angladi va "qulluq" deganday shitob yurib ketdi. Dam o'tmay To'tiqiz uchun tilla zebigardon solingen barqut qutichani avaylab, malika yoniga qo'ydi.

Yomg'ir selgib o'tgach, bahavo bo'lgani singari Nodiraning ko'ngli yorishgan edi. Sanamlarning oshifta muqomlari, dildan yayrab, osmon qadar sakragisi kelayotganligining o'zi rohat bag'ishlardi kishiga.

Maston oyim laparchi sanamlarning xislatlari mos terma to'qib, hammani kul-dirardi, Sanamlarning sho'xshan qiyqiriqlari O'rdani tutar, yiroq-yiroqlardan jazoiri qilich taqqan maxsus muhofiz yigitlar og'ir tin olib, yutinib qo'yishardi.

Kun O'rda orqasiga o'tib, pastladi. Haroratning dami qaytdi. Sanamlar birin-ketin o'z o'rinalardan qo'zg'aldilar.

Nodira xonai xosda arabiy gilam uzra to'shalgan zar ko'rpachada o'trgancha, ho-zirgina tuhfa etilgan o'z g'azallarini ko'zdan kechirarkan, nogoh ochilgan eshik uning xayolini tum-taraqay uchirib yubordi. Olima otinning chehrasi negadir tund edi,

- Oyim, - Olima otin ohista so'z boshladi-yu, boshqa gapirolmadi. Nodiraning yuragiga g'ubor qo'ndi, bu g'ubor butun jismini egallab olgan edi.

- So'zlangiz! .

- Andijondan chopao bor...

- Chopar! B'T "Nodira beixtiyor tizzalari qaltirab, o'rnidan turib ketdi - Tinchlikmi?  
 Olima otin gapirolmadi, chaqirayin deganday ortiga qayrildi. Dam o'tmay shoshib kirgan chopar gilam uzra yukindi.  
 - Qutlug' xonadoningiz uzra shum xabar olib kelganligim uchun izn so'rayman, oyim. Siz zudlik ila safar tadorigini ko'rmoqligingiz joiz.  
 Nodira muz qotib qoldi, nahotki validai mukarrama... Yo'q, yo'q, uning ishongi-si kelmasdi, unsiz faryod-la chopar ko'ziga tikildi.  
 Chopar nayza yanglig' sanchilayotgan qarashlarga bardosh berolmadni, boshini solintirib davom etdi.  
 - Validai mukarramangiz bugun peshinda... - Chopar hiq etib yutindi. - Pe-shin chog'i...  
 Nodira faryod chekib, yiqilayozganda Olima otin chaqqonlik bilan bag'riga oldi. Hozir izardirob bilan vaqt o'tkazishning mavridi emas, buni Olima otin angladi-da, kanizlarga safar hozirligini ko'rishni buyurdi.  
 Tinimsiz uvlayotgan Ho'qand shamoli aro Andijon sari ot boshini burishdi. Bu safar abri g'urron Nodira qalbida tinimsiz aylanar, nazarida qorong'i kunlar boshlanmoqda edi...

### Yarador Yurak

Kuz Ho'qand diyoriga o'z palagini yoydi.

Mohlaroyim har galgiday tong bilan turib, ilimiliq suvda tahbrat oldi. Bugun uning ko'ngli negadir o'ksik edi, olampanoh Amir Umarxon yelkasidagi og'riq yana qaytalanganday kechasi ikki-uch ingradi. Bundan Mohlaroyim cho'chib uyg'ondi, soniyan zar ko'rpačani sekin surib, olampanoh yelkalarini o'radi.

"Ishqilib ko'nglim podshohining umri uzun bo'lsin!" Xayolidan chaqmoq singari o'tgan bu fikr Mohlaroyimga tasalli berdi-da, xonai xosga kirdi.

Bamdon namozini o'qib, xonai xosdan ayvon tomon yurdi. Bu orada olampanoh Amir Umarxon ko'rinish berdi. Mohlaroyim o'zini chetga oldi.

- O'zlaridan bo'lsin, xonim.

Qachonlardan beri bu muloyim so'zni tinglamagan Mohlaroyim rosti entikdi, to'g'risi mana shu iltifotni sog'ingan edi. Erta bahordan, yaChbni O'ratega qolib, Jizzax uchun bo'lgan jangu jadaldan olampanoh Amir Umarxon o'zini oldirib qo'yan, deyarli besh-olti hafta tabibrarning nazoratida bo'lgan va nihoyat turli muolajardan ko'ngli endigina ravshan tortib kelayotgan edi. Bu rrada ne-ne savdolar o'tdi, bu biringina ollohgayu Mohlaroyimgagina ayon. Dastlab, og'riq alamlariga arang chidagan olampanoh beixtiyor Xonposhsha oyim deb yuborgan payti Mohlaroyim bir qadar titragan, ko'nglim podshohi deb e'zozlab yurgani ko'z oldida o'zgalarni qumsayotganligidan rangi quv oqargan, "Evoh, bunday ko'rgilikka qanday chidar ekanman", degan xayolga borgan va yana "ko'z ochib ko'rgan jufti halolim-ku", deya o'zini bosgandi. O'sha kuni tun tobora uzayib borayotganday tuyuldi Mohlaroyimga. Ko'ngli ham g'ira-shira edi. To'g'risi, Mohlaroyim haligi ismni yuziga solmoqchi bo'ldi, qayoqda, og'iz juftlashga quadrati yetmadi. Olampanoh Amir Umarxon kechagi kundan ancha tetik, bardam, kayfiyati xush edi. Mohlaroyimga mana shu kerak. Beixtiyor olampanoh Amir Umarxonning chehrasidagi tabassumdan ko'ngli yayradi, xayriyat, muolaja o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xudo xohlasa keyingi haftada o'rnidan batamom turadi! Shunday tabiblar bor bo'lsin! Olampanoh Amir Umarxon o'shanda Muhammad Alixon bilan Sulton Mahmudxonni ko'rajagini aytgandi. Mohlaroyim shu zahoti farzandlariga yasovul yubordi, o'zining ham sog'inganini his qildi. Shahzoda Muhammad Alixon besh yashar chamasi, inisi - Sulton Mahmudxonni yetaklab kirib keldi, avval onalari, soniyan padari buzrukvorlari bag'riga otilishdi. Xuddi shu soniya olampanoh Amir Umarxonning ko'zlar birdan charaqlab ketdi.

- Qani-o'tiringlar, mehmonlar, - dedi olampanoh Amir Umarxon. Olampanoh Amir Umarxonning bu gapi shahzoda Muhammad Alixonga nash'a qildi.

- Biz farzandingiz erurmiz, padari buzrukvor.

Olampanoh Amir Umarxonning yuzidan jiddiylik tark etmadi, ohista nafas oldi.

- Bu dunyoga hammamiz ham mehmonmiz, o'g'lim.

- Padari buzrukvor...

- Padari buzrukvor o'gitini u qulqlaringizga ham, bu qulqlaringizga ham Quyib olinglar, bolalarim.

Mohlaroyim olampanoh Amir Umarxon qulog'iga: "Hozir mavridi emas", demoqchi edi, tili aylanmadni.

- Padari buzrukvor...

- Muhammad Alixon ibn Amir Umarxon! Keling, baxt qushi qo'nishga oshiqayotgan peshonangizdan bir o'pay!

Shahzoda Muhammad Alixon dovdiradi, Sulton Mahmudxon nima qilarini bilolmay bir padari buzrukvoriga, bir Mohlaroyimga o'girildi. Muhammad Alixon olampanoh sari yurdi.

- Kenjatoymiz Sulton Mahmudxon, keling, jonim, qachonlardan beri erkatalolmadim chog'i. Bu padari buzrukvorinig saltanat ishlari bilan bo'lib...

Sulton Mahmudxonning yirik-yirik ko'zlar lovullab yondi, shu soniya padari buzrukvor quchog'ida erklangisi keldi va o'zini ana shu haroratlari og'ushga otdi.

- Bolalarim, sizlar men uchun biringiz ko'z, biringiz qoshsizlar. Har ikkingizni birdek suydim. Ming afsuslar bo'lsinki, saltanat yumushlari meni bukib qo'ydi. Mana, validangiz boxabar. Mening ham yuragim g'azal ila to'lig' edi, nailoj. Ustiga ustak kamina lovullayotgan cho'g' ustiga kul bostirishga intildim. Eh, xom sut emgan banda! Boshing yostiqqa tekkanda o'ylar ekansan, dunyoning ishlarini...

- Padari buzrukvor...

- Hozir, Muhammad Alixon, hozir... Siz valiahdimsiz. O'ylagan niyatlarim ko'p edi, validangiz ila Ho'qand saltanatini Samarqandu Buxoro yanglig' osmono'par binolar ila boyitish edi. Shu ishlarim chala...

- Padari buzrukvor...

- Hammamiz bu dunyoda mehmonmiz, deya bejiz boshlamadim gapni. Kimdir oldin, kimdir keyin deganday... Yuragim tubida to'planib qolgan so'zlarni birma-bir yozmoqdamen, o'g'lim!

- Hazratim! - Mohlaroyimning g'oyat shirali ovozi tashvish ila yangradi.- Siz... Siz...

Olampanoh Amir Umarxon Mohlaroyim tomon ko'z tikdi, chamasi, termilib to'yayotganga o'xshardi.

- Xonim... Sizni ko'p qiy nadim, orzularingiz yo'lida to'g'anoq bo'ldim. Men... Men...

- Hazratim!

- Padari buzrukvor!

Olampanoh Amir Umarxon kenjatoyi Sulton Mahmudxon peshonasini silarkan, Muhammad Alixonga qarab, dedi:

- Hech qachon iningiz Sulton Mahmudxonni o'ksitmang! Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas deganlar. Ammo, sizlar...

Shahzoda Muhammad Alison bosh silkidi,

- Mayli, boringiz. Hozirdan yosh boshingizga tashvish ortmay.

Shahzoda Muhammad Alison va Sulton Mahmudxon padari buzrukrori va validasiga ta'zim qilib, ortiga qayrilishdi.

...Hozir Mohlaroyimga olampanoh Amir Umarxonning tavoze ila "O'zlaridan bo'lzin, xonim" degan so'zlarini benihoya yoqimli eshitildi. Ko'ngli quvonchga to'lib toshdi. Ayol kishining ko'ngli bir og'iz so'z bilan osmon qadar yuksalishi yoinki batamom abgor bo'lishi mumkin. Keyingi yoz fasli olampanoh Amir Umarxon uchun tahlikali o'tdi, yaxshiyamki Mohlaroyimdek ko'ngil dardini sezuvchi yo'ldoshi bor ekan, kam bo'lindi, vaziri kalon Ismatullabiy, shayxulislom Ma'sumxon to'ra, xo'jakalon Sultonxon to'ra va mavlono Abdulkarim Fazliy kabi niyati pok, el-ulus dardini o'z dardi bilan baham ko'radigan olijanob kishilar etagida sultanatni bir navi boshqarib turdi. Mohlaroyim yangi qad rostlayotgan madrasa, masjid, xonaqoh, karvonsaroy xususida to'lib-toshib so'zlar, ba'zan muhandis, koshinkor, me'morlar xizmati yetarli qadrlanmayotganligidan afsuslanar, sohibqironning nozik ko'nglini ko'tarish bahona-sida uning g'azallarini xattotlarga ko'chirtirardi. Olampanoh qo'liga devonini olganda ko'zida yosh o'ynadi. Shundagina bebahra o'tgan damlarning qadrini tushunib yetdi. Evoh, qo'lidagi dubulg'a o'rniда qalam ushlasa bo'lmasmidi. Qilich o'ynatishni bas qilib, lavh ustidagi ochiq qolgan daftarni dil hayajonlari bilan to'ldirishni nega unutdi? Shuncha fursat befoyda ketibdi-ya! Buni kim to'ldiradi, qanday to'ldiradi! Yuragi jiz etganini sezdi va endi u kech edi! Shunda ham olampanoh Amir Umarxon yostiqdoshi boshida parvona bo'layotganidan taskin topdi!

- O'zlaridan bo'lzin, xonim!

Mohlaroyim uyat va iyamanish iskanjasidan g'olib chiqib, ko'ngil ruhining podshohiga o'girildi.

- Muborak izlaringizdan yurish ham g'oyat sharaflidir, hazratim! Olampanoh Amir Umarxon o'z vaqtida aytilgan bu javobdan jilmaydi, xonai xos tomon dadil odim tashladi. Mohlaroyim jufti halolining ortidan sokin borarkan, maia shu odim olishlarining o'zi bir dunyo boylik ekanligini, keyingi damlarda yuragi qon bo'lib ketganligini o'yldi, hayot deb atalmish xonaqohda oldinma-keatin qarib-qartayish, nevara-chevaralarning to'y-bazmlarini ko'rishdek baxtga tuyassar etishini Ollohdan so'radi.

Olampanoh Amir Umarxon xonai xosning to'risiga o'tarkan, avvaldan tayyorlab qo'yilgan lo'labolishlarni qo'yniga oldi va sokin kuzning mo'tadir havolaridan to'yib-tuyib simirdi. Favvora atrofidagi sarvqad teraklarning sarg'aygan yaproqlari chirt uzilib, zamin uzra to'shalardi. Olampanoh bir xazonning havoda zir uchib yerga tushganidan ko'ngli muz tortdi. Evoh, inson umri ham shu ekan-da!

Mohlaroyim jufti halolining bir muddat xayolga botganini sezib, ostonada ko'rinish bergen Olima otinga imo qildi. Olima otin tushunib yetdi. Mohlaroyimning ostona tomon boqishi hamono bakovullarning kelishi tayin edi. Mohlaroyim olis hind elidan sovg'a qilinmis zar yogurtirilgan choynakdag'i choyni qaytardi-da, biroz tindirib, olampanohga tavoze birla uzatdi. Olampanoh Amir Umarxon ma-likha harakatlariidagi mayinlik, muloyimlik va tavozedan o'sha, bundan o'n besh yil muqaddam Marg'ilon chorborg'idagi unutilmas damlarni xayolidan birma-bir o'tkazdi.

...Ostonada paydo bo'lgan eshikog'a shayxulislom Ma'sumxon to'ra huzurlariga kirmoq niyati borligini yetkazdi.

Olampanoh Amir Umarxonning yuzida nur o'ynadi, padari buzrukrori o'rnidagi g'oyat mehribon bu nuroniysi chamasi ikki kundan beri sog'inch bilan kutardi, shu sabab bosh qimirlatib rozilik bildirdi.

- Assalomu alaykum, yurtimizning tayanchi, islom dinimizning himoyachisi olampanoh! Assalomu alaykum, malika kelin!

Mohlaroyim shayxulislom Ma'sumxon to'ra hurmati yuzasidan o'rniidan turib ta'zim bajo ayladi. Ma'sumxon to'ra olampanoh bilan ko'risharkan:

- Abulmuzaffar va-l mansur amir musulmon said Muhammad Umarxon hazratlari! Men ulug' arshning egasi bo'l mish olloh taolodan sizga shifo bermog'ini so'rab duo qilib yotibman!

Olampanoh Amir Umarxon chehrasiga nur yog'ildi, shu soniya shayxulislom Ma'sumxon to'raga minnatdorchilik bildirib, bosh qimirlatdi.

- Olampanohimiz sihatlari durust bo'lganlaridan boshimiz osmon qadar ba-land bo'lg'ay! Bu olamning etagi kengdir, vojab, mana shu keng dunyo har kimga ham nasib etgusi mushkuldir. Jizzax etaklarida yuqqan balo-qazoning daf bo'lganligi har birimiz uchun inshoollo, yorug' kunlar nasib etishidan darak bergusidir. Shundaymi, malika kelin.

Shayxulislom Ma'sumxon to'raning bosiq va osuda so'zlashlari Mohlaroyim yuzida nim tabassum uyg'otdi. Olampanoh Amir Umarxon ham shayxulislom Ma'sumxon to'raning qadriga yetmaganligini va xonadaniga yorug' nur bag'ishlovchi bu nuro-niyni o'z vaqtida e'ozlamaganini tushunib yetdi. Bu oksik og'ir tin bilan bosilganday bo'ldi.

Olampanoh Amir Umarxon yelkasidagi og'riq shu soniya halal berdimi, ohista lo'labolishga yonboshlagan kuyi dedi:

- Sizni ko'rmoq orzusida edim. Mening shu kechadagi nolalarimni xudonikg o'zi yetkazibdi. Ming qatla shukur.

- Mening ham dilimga solingandek bo'ldi, olampanoh. O'z ko'zim bilan ko'rib, nasibamni totib kelarman, deb huzuringizga oshiqib kelaverdim, olampanoh.

- Yetkazganiga shukur. Ammo, keyingi damlarda ko'nglim negadir shikorni qumsab qoldi. Yozyovon taraflarda aylansam deb edim...

- Shikor? Bemavrid emasmi, olampanoh.

- Nechun?

Shayxulislom Ma'sumxon to'ra bir soniya tin oldi. Chamasi, yuragida yilt etib uyg'ongan bu og'riqni aytmaslikka haqqi yo'q edi.

Shayxulislom xazonrezgi paytlari olampanoh Amir Umarxonning shikorga chiqishini ravo ko'rmasdi. Buni qanday ayta oladi.

Boz ustiga xastalik endigina tark etyapti. Chor-atrof, ufq va hududsiz manzara ko'nglining ravshan tortishiga yordam berarmikin. Yoinki dil yarasini badtar og'ri-tarmikin. Shayxulislom Ma'sumxon to'ra mana shundan cho'chir, cho'chirdigina emas, shunday ofat balo-qazolardan asrashga intilardi.

- Olampanoh, ko'ngillari shikorni tusaganligi ham sharafdir. Bil'aks, tabiat o'z libosini almashtirayotgan bir payt. Bos ustiga hali og'ir darddan forig' bo'lganingizcha yo'q, olampanoh. Menga qolsa, bahor kyozlari, tabiat yoshargan pallada chiqsak deyman.

Mohlaroyim shayxulislom Ma'sumxon to'ra taklifini ma'qulladi. Ammo olam-panoh Amir Umarxonha hozirgi taklif yoqinqiramadi shekilli, sekin yerga qaradi. Biroz jim turgach, amirona buyurdi.

- Abulmuzaffar val mansur amir musulmon said Muhammad Umarxon bizning so'zimiz...

- Bosh ustiga, olampanoh, - shayxulislom Ma'sumxon to'ra yana ta'zim qildi.

- Shu onlarda shikorga chiqmoqni ixtiyor etdim, vaziri kalon Ismatullabiy amiru umarolarni shikorga shaylasinlar. Nazarimda, bu

safar ko'nglim ravshan bo'lg'ay...

- Aytganingiz kelsin, hazratim,- dedi Mohlaroyim.

- Xudovandi karim ol qulim desin, olampanoh. Sizning shodligingiz el-ulusning baxtiyorligi. El-ulusning niyati endigina ro'yobga chiqyapti.

Shayxulislom Ma'sumxon to'raning so'nggi tilagi olampanoh Amir Umarxon boshini osmon qadar ko'tardi, yuziga tabassum yugurdi. Bugungi kun Mohlaroyim uchun g'oyat esda qolarli edi, alalxusus, olampanoh Amir Umarxon necha oyki bugungidek yayramagan va o'zini xushnud tutmagan edi.

Shayxulislom Ma'sumxon to'ra chiqishga izn so'ragandek olampanoh Amir Umarxonga yuzlandi va eshik tomon ohista yurdi.

Mohlaroyim tabarruk bu nuroni yizdan ostonagacha kuzatib qo'yishni o'zi uchun burch sanadi va ostonadan hatlab, "Yaxshi boringiz", dedi.

Olampanoh Amir Umarxonning xayoli shu topda shikor bilan band edi, alhol o'zini bu o'ylardan chalg'itish maqsadida kitobxona tomon yurdi.

Mohlaroyim olampanoh Amir Umarxonni.ng kitobxonag'a kirmoqchilagini anglab, yuragi zavq-shavqqa to'ldi. Bu ne baxtki, olampanohning o'zi fikr bahridan gavhar tersa. Bu ne baxtki, anchadan buyon lavhda ochiq qolgan nazm daftarinini to'ldirish istagi tug'ilsa.

Olampanoh Amir Umarxon kitobxonaning keng va oydin xonasiga to'shalgan gilam bo'ylab yurarkan, ancha xushnud bo'ldi.

- Ofarin, xonim! Kitobxona ko'nglimni ravshan etdi-qo'ysi.

Mohlaroyim hozir gap bylan chimdib olishning payti kelganligini sezdi-yu, umrining hamrozi va gultojisini noo'rin xafa qilib qo'yishdan o'zini tiydi.

- Ha, hazratim, siz saltana^ yumushlari bilan bo'lib...

- Saltanat yumushining o'zi tubsiz jar... Alalxusus, bu kitoblar, bayozlar, zar suvi yugurtirilgan devonlar. Mana bu devonlar yangi bitilgan shekilli...

Olampanoh Amir Umarxon ko'zga ko'rinarli joyga qo'yilgan devonlarning birini oldi.

- Amiri...

- Shundog', hazratim...

- Qachon tartib berilgan.

- Kuni kecha, hazratim! Shahri azimimizda Oxun devondek xattotlarimiz borki, husnixatligi uchun Mirzoi Zarrin kalom deb bejiz aytilmasdир.

- Barakallo. Saltanat boshida yuz yil qad kerib turgandan ko'ra, mana bunday yagona devon tartib etishning o'zi afzal.,,

- Haq gap, hazratim.

Olampanoh Amir Umarhon shu soniya umrini bejiz o'tkazib yuborganligini tushunib yetdi.

- Amiri... Yanami, xonim?

- Shundog', hazratim! Bu devonni To'tiqiz tartib bergen...

- Nodira...

Mohlaroyim uyalinqiradi. Hozir uning yuragi his-tuyg'u bilan to'lib toshgan edi.

- Bunisini ham, hazratim...

- To'tiqiz dedingizmi?

- Shundog', hazratim! Ho'qandimiz shoiralaridan. Husnixatini qarang! Olampanoh Amir Umarxon bugun ilk bor zavjasi Mohlaroyimning "Devon"ini qo'lga oldi.

- Ollohga beedad shukrlar bo'lsinki, she'riyat bog'ida men o'ylagandan ming chandon o'zibsiz...

- Qulluq, hazratim! Lekin hazratlarim shikoru saltanat yumushlari ila band bo'lganlarida men sizning g'azallaringiz dunyosida yashadim, uning marvaridlarini terishga oshiqdim.

- Ajab...

- Tinglang, hazratim!

Lab uyur takallumga, zulfungni parishon kil,  
Qand qiymatin sindur, narhi anbar arzon qil.

Husn shohisan, dono, bu hazin gadolarg'a,  
Ko'z uchi ila boqib xayr birla ehson qil.

Ishq diniga munkir bo'lsa oshiqi xudbin  
Ey sanam, liqo ko'rsat, gabrni musulmon qil.

Ihtisob uchun zohid kirsa dayr aro, soqiy

Bir qadah bila oni zuhdidin pushaymon qil.

Istasang ko'ngullarni g'amza yoyiga partob

Qoshlaring hilolini mohi iydi qurban qil.

Sho'x chashmi navxatsan, noz xashtida sayr et,

Gardi xoki poyingni surmai g'azolon qil.

Yor la'lidan harfe ayladim, Amir, insho,

Ey ko'ngul, bu gavharni jon ichinda pinhon qil.

- Ofarin, ming ofarin, xonim!

Mohlaroyim yuzida tabassum ishva qildi. U amiralmusliminning soyai davlatida yayrab-yashnab yurishni, jo'shib ijod sahifalarini boyitishni va cholaversa, Ho'qandi azimning chiroy ochishiga hissa qo'shishini istardi. Yaqin ikki fasl g'oyat uzoq cho'zildi, to'shakka mixlangvn olampanoh Amir Umarxon to'shagi yonidan jilmadi, qalb daftari varaqlanmadni, sayqallanmadni. Bugungi kun negadir boshqacha - yorqin va jozibali edi.

Shu asnoda Olima otin ko'rinish berdi, demak sultanatdan kimdir tashrif buyurgan. Ostonada vaziri kalon Ismatullabiy ta'zim qilgach, olampanoh huzurlarida yuqingan bo'ldi. Mohlaroyim olampanoh Amir Umarxonni xoli qoldirish niyatida qo'lini ko'ksiga

qo'ygancha kitobxonadan chiqishni ixtiyor etdi. Bu orada vaziri kalon Ismatullabiy olampanoh Amir Umarxonga ro'baro' kelib egilgan kuyi qo'lini uzatdi.

- Qo'lingizni oлganimdan behad umidvormen, shahriyor! Saltanatingiz bundan ham to'kin, obod va ravshan bo'lg'ay! Boz ustiga ko'ngullari shikorga chiqmoqni tiladi, tahsinlar o'qigaymiz. Buyog'i O'sh, Yozyovon, yoinki Quva havosi rohat bag'ishlashini, dillarni ravshan etishini tilagaymiz. Alalxusus, yagona umid sizdan muddatni izhor etsangiz, o'sha ondayoq otlanurmiz, shahriyor! Olampanoh Amir Umarxon vaziri kalonning bu gal "shahriyor" deya murojaat etishini negadir yoqtirmadi, hozirning o'zida javob qilmoqchi edi, yana nimanidir eslab, indamay qo'ya qoldi.

- Meni kiyintirsinlar!

Vaziri kalon Ismatullabiy shoshib qoldi. Shikor muddatini aytish o'rniga olampanoh Amir Umarxonning shahar aylanishi ayonlashdi. Yasovullar olampanoh Amir Umarxonning oltin jig'a, zar to'nlarini kiyintirishga tushdilar.

- Urinib qolmasmikinsiz, shahriyor!

Olampanoh Amir Umarxonning chehrasi biroz ochilganday bo'ldi.

- Bedovlar shaymi?

- Hammasi shay, shaxriyor!

- Ho'qandi azimni ko'rish niyati tug'ildi. Yangi imoratlar, madrasalar...

- Niyatingiz ulug' bo'lzin!

Vaziri kalon Ismatullabiy o'zida yo'q xursand, yaqin orada boshlanadigan shikorni o'ylab og'zining suvi kelar, negaki xuddi shu onlarni u orziqib kutardi. Shikor bahona tunlari qo'ynida mohichehra nozaninlarni erkalar, tong yorishmayoq yana olampanoh Amir Umarxon huzurida ta'zim bajo aylardi.

O'rda maydoni sari yaqinlashayotgan olampanoh Amir Umarxon vaziri kalon Ismatullabiy jazoiri qilich taqqan maxsus muhofiz yigitlarning betoqat bo'layotganligini sezishdi. Vaziri kalon Ismatullabiyning qovog'i osildi, qorovulbegining yuragi hapriqdi, shoshib soqchilar tomon yurdi. Darvoza ortidan allaqanday ovoz kelar, soqchilar sochlari to'zg'igan xotinning nariroq turishini buyurishar, haydashar va do'q-po'pisa qilishardi. Xotin esa ovozini atayin balandlatib sultonni mozoriga g'isht qalardi.

- Duo qilaman, bir karniki, bir ko'rniki, deganday meniki ham ijobat bo'lib qolar...

Olampanoh Amir Umarxon xotin qarg'ishini elas-elas eshitdi-yu, bir soniya joyida turib qoldi.

- Shahriyor!..

- Shang'illayotgan xotinni tanurmisiz?

Vaziri kalon Ismatullabiy bu savoldan dovdiradi, to'g'risi u bundai yumush bilan shug'ullanishni o'zi uchun or deb hisoblardi.

Hozir nima deb javob qilishini bilolmay qoldi.

- Dilingizni og'ritmangiz, shahriyor!

- Tanirmusiz?

- Biror tilamchi adashib kirib qolgandir, shahriyor!...

- Dard ila o'ksib yig'layotganligi qulog'ingizga chalinmadи shekilli...

- Bunday nokaslarning urug'i bir, shahriyor. O'zlarini pokiza ko'rsatish payida bo'ladiyu...

- Bas!

Vaziri kalon Ismatullabiy olampanoh Amir Umarxon tomon ta'zim qildi.

- Buyuringiz, shahriyor. Hozir amringiz o'rinalnur...

- Ilgari bundaylar yo'q edi chamasi...

- Shahriyor...

Olampanoh Amir Umarxonning o'q yalab o'tgan yelkasi qolib ko'kragida sanchiq turdi, u ohista ko'krak qafasini silagan bo'ldi. - Shahriyor...

- Yo'lni buring...

Vaziri kalon Ismatullabiy tushunib yetganicha yo'q edi, olampanoh Amir Umarxon yuganni siltadi. Bedov old oyoqlarini dast ko'tarib, kishnadi. Olampanohning o'zi zar suvi yogurtirilgan egardan uchib ketishiga bir banya qoldi. Shunday bo'lsa-da, otning boshini orqaga burdi.

Vaziri kalon Ismatullabiy bedoviga qamchi urdi. Mohlaroyim olampanoh Amir Umarxonning zudlik bilan ortga qaytganligini eshitib, darvoza tomon yurdi. Mohlaroyim olampanoh Amir Umarxonning ranggi oqarib kelayotganligidan yuragi ezildi.

Vaziri kalon Ismatullabiy olampanoh Amir Umarxonning otdan tushishiga yordamlashdi.

- Hazratim...

Olampanoh Amir Umarxon Mohlaroyimning tiniq va hazin ovozini anglab yetdimi, ko'zini xiyol ochdi.

Mohlaroyimning imosiga mushtoq Olima otin xonai xosga ko'rpačhani qalin qilib to'shab, "Hammasi taxt, oyim", deganday bosh qimirlatdi. Mohlaroyim ko'nglining gulzori va bog'boni olampanoh Amir Umarxonning vujudini timdalayotgan yarani anglay olmas hamda bunchalik tez o'zgarib borayotganining boisini tushunib, yetolmas edi. Yaqin olti oy umrining sohibqironi boshida termilib o'tirib, bugungidek yorug' lahzalarni orziqib kutgan, qolaversa, yuragi ham qon bo'lib ketgan edi. Ajabo, bu munavvar kunlarni kim ko'p ko'rdi ekan? Nahotki olamlanoh Amir Umarxon xastalik to'shadidan qaddini ko'tarolmasa. O'zing qo'lla, o'zing yo'llahaloqqi egam!

Olampanoh Amir Umarxon ko'rpačha uzra yotarkan, bir zum og'ir ingradi, chamasi yelkasi osha borayotgan og'riq kuchayayotgandek edi. Alalxusus, olampanoh Amir Umarxon bu safar ko'krak qafasini ushladi.

- Hazratim... Bir og'iz so'zingizga mushtoqmen. Nima bo'ldi, qiynalayotgan joningizga jonim tasadduq. Jillaqursa bir og'iz so'zlang...

- Chog'ir...

- Hazratim!

- Chog'ir...

- Bir muddat sabr qiling, hozir tabib tashrif buyuradilar. Inshoollo, darddan xalos bo'lursiz...

- Yuragim... yuragim... Qani, kim. Kim bor, chog'ir!..

- Hazratim...

- Chog'ir...

- Hazratim...

This is not registered version of TotalDocConverter  
Olampanoh Amir Umarxon ko'z o'zida qila upor kapaq bosh tbmoniga o'tgandek tuyuldi, uni ko'rdi-yu, nafasi tiqildi, soniyan ingragan tovushda qo'l silkidi.

- Ket... ket...

Mohlaroyim qalbini qorong'ulik chulg'adi. U sekin o'rnidan turib burilmoqchi edi, olampanoh Amir Umarxonning "ket, ket", deya hazin ovozi takrorlandi, shundagina Mohlaroyim umrining hamrohi va mastoni o'z-o'zi bilan so'zlashayotganini tushunib yetdi. Olampanoh Amir Umarxon o'rnida to'lg'andi. Chamasi unga Jumabiy qaytoqi va Irisqulibiyning suhbatini tinchlik bermasdi. Mohlaroyim ikki o't orasida, nima qilarini bilolmas, olampanoh Amir Umarxonning bosirqirab, "ket, ket", deyishlaridan joni halakda edi. Uch-to'rt tabib muolaja qilib ko'rdi, alaxsusus, saltanat sultonining tanasidan harorat pasaymasdi.

...Kunlar ortidan kunlar g'amgin o'tardi. Mohlaroyim olampanoh Amir Umarxonning arang pirpirayotgan kipriklariga termiladi. Bir tomonda sham eriy-eriy kichraya boradi.

Umr va sham...

Mohlaroyim uni esladi-yu, cho'chib ketdi, o'zini o'zi koyidi. "Yo'q, yo'q, bunday la'nati o'yni yel olsin!"

- Hazratim...

Mohlaroyim olampanoh Amir Umarxonga intiq termildi, tobora muzlab borayotgan badaniga qo'li tegdiyu ko'zyoshlari oqib tushdi.

Olima otin shamni yangiladi, sharpasiz ortiga qayrildi. Mohlaroyim hamon unsiz faryod chekar, qaniydi, umrining sultoni va gultojsi hisoblanmish olampanoh Amir Umarxon umrini sham yanglig' yangilay olsa?! Jonini, jahonini berishga tayyor edi, afsus, ming bora afsus... Oyoq tomonda Muhammad Alixon, Sulton Mahmudxon... Shayxulislom Ma'sumxon to'ra tinimsiz tasbeh o'giradi.

Olampanoh Amir Umarxon bir entikdi, uning ko'z qorachiqlari kengayib ketgandek bo'ldi. Ana shu ko'zlardan alvidolik so'zları yashirin boqayotganligini anglash mumkin edi. Buni shayxulislom Ma'sumxon to'ra anglatdi va Mohlaroyimga: "Bardam bo'ling, malika kelin" deyishga ulgurdi. Mohlaroyim o'kira-o'kira sochlarini yuldi.

- Yo'q, yo'q. Hazratim...

Shayxulislom Ma'sumxon to'ra olampanoh yuziga bir zum termulib turdi-da, dedi:

- Ollohning irodasi, qizim! O'zi umr bergen egam o'zi tortib olsa nima ham derdik.

Mohlaroyim qora ro'molini changallab, qo'sh farzandini bag'riga bosgancha yig'lashga tushdi.

Meni, ey charx kajraftor, yorimdin judo qilding,  
Xazondur bog'i ayshim, navbahorimdin judo kilding,  
Ayirding mehribonimdin, nigorimdin judo qilding,  
Charog'i nuri baxshi ro'zg'orimdin judo qilding,  
Nigori sarv qomat guluzorimdin judo qilding,  
Tanim xoki rah o'ldi, shahsuvorimdin judo qilding.